



<https://interscience.uz/>

ISSN 2181-1709 (P)

ISSN 2181-1717 (E)

SJIF: 3.805 (2021)

2023/8

**TA'LIM VA
INNOVATION
TADQIQOTLAR**

**ОБРАЗОВАНИЕ И
ИННОВАЦИОННЫЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ**

**EDUCATION AND
INNOVATIVE
RESEARCH**

TA'LIM VA INNOVATSION TADQIQOTLAR ОБРАЗОВАНИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH



№ 2023

Muassis:

Buxoro davlat universiteti
Fan va ta'lim MChJ

Bosh muharrir: Ma'murov Bahodir
Baxshullayevich

Jamoatchilik kengashi raisi:
Xamidov Obidjon Xafizovich,
Buxoro davlat universiteti rektori

Tahririyat kengashi raisi:
Maxmudov Mels Hasanovich

Mas'ul kotib: Akramova Gulbahor
Renatovna

Texnik muxarrir: Davronov Ismoil
Ergashevich

Tahririyat manzili:
Buxoro shahar,
Q.Murtazoyev ko'chasi, 16-uy

Telefon:
+998(90)744-00-22

E-mail:
eirjurnal2020@gmail.com

Jurnalning elektron sayti:
www.interscience.uz

Jurnal OAK Rayosatining 2021 yil
30 sentyabrda 306/6-son Qarori bilan
PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA,
FILOLOGIYA, TARIX
FANLARI bo'yicha falsafa doktori
(PhD) va fan doktori (DS)Sc
ilmiy darajasiga talabgorlarning
dissertatsiya ishlari yuzasidan asosiy
ilmiy natijalarini chop etish tavsiya
etilgan ilmiy nashrlar ruyxatiga
kiritilgan

Bosishga ruxsat etildi: 28.08.2023 y.
Qog'oz bichimi 60x84 1/8. b/t.12,5.
Buyurtma raqami 1.23
«FAN VA TA'LIM» nashriyotida chop
etildi. Buxoro shahar

Jurnal 28.07.2021 yilda 9305 raqami
bilan O'zbekiston Ommaviy axborot
vositalari davlat ro'yxatidan o'tgan

Jurnal 2020 yilda tashkil topdi va
2 oyda 1 marta chop etildi.
2021 yil noyabr oyidan boshlab har
oyda 1 marta o'zbek, rus va ingliz
tillarida chop etiladi

«Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar»
xalqaro ilmiy-metodik jurnalidan
ko'chirib bosish tahririyatining roziligi
bilan amalga oshiriladi

Maqolada keltirilgan faktlarning
to'g'riligi uchun muallif mas'uldir

07.00.00 – TARIX FANLARI	
Asatullaev M. I. История подготовки кадровых работников культуры Узбекистана (на примере Самаркандской области).	7
Axmedov Z. R. O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash hamda Uchinchi Renasans bunyodkorlarini tarbiyalashda nuroniylarni tutgan o'rni.	11
Toirov A. O. Jaloliddin Manguberdi hayotining arab va fors tilidagi manbalarda yoritilishi to'g'risida mulohazalar	15
To'raxo'jayev S. Turkiston ASSRdan qochoqlarni reevakuatsiya qilinishi	20
Хасанова З. Дж. Массовое восстание 1916 года в Туркестане примере Фергенской области. (по материалам национального архива Республики Узбекистан).	24
Yo'ldashev S. A. Amir Temur va Temuriylarning tashqi savdo va elchilik aloqalari	29
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
Karamova Sh. L. An'anaviy she'riyatda metaforik obrazlilikning kuchayishi.	33
Kasimova R. R. O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasi inglizcha tarjimasida milliylik ifodasi	37
Raximova M. A. Esse matnlarida qo'llanilgan pretsedent birliklar	41
Saidova K. Omonimlik va polisemantik hodisalarni farqlash	45
Shodieva Sh. I. Vatan konseptining leksik-semantik maydonlari	48
Toirova G.I., Chudakova V. P., Kuziyeva T.F. Characteristics of Writing abbreviations adapted to the uzbek language in the process of using integral digital tools	51
Turotova P. Sh. "Muqanna" dramasini pedagogik texnologiyalar asosida o'rganish	57
Yorbulova D. Sh. Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon "Galdir" tahlili	60
Ziyodullayev A. R. Ingliz va o'zbek tillarida eponimlarning lingvokulturologik aspektlari	64
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
Ahmedjanov N.A. O'zbekiston turizmi rivojida jizzax viloyatining o'rni va roli	69
Алибеков Ш. А. Теоретические принципы развития жизненно-практических компетенций у обучающихся старшеклассников на основе интегративного подхода.	73
Aliyev N. M. Gipotetik-deduktiv metod orqali bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishning innovatsion-pedagogik tizimi	77
Allamberganova M.X. Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilariga elementar matematik tushunchalarni o'rgatishda dasturiy vositalardan foydalanish	81
Askarova Sh. M. Yevropada shaxs mediamadaniyatiga oid tadqiqotlar	85
Asqarova M. Boshlang'ich ta'limda xalqaro baholash dasturlaridan foydalanishning metodik asoslari	88
Avazov A. J. Uzluksiz ta'lim-tarbiya jarayonini boshqarishda ijtimoiy-madaniy ta'sirlar	92
Axnazarova D. E. Talabalarda ijodkorlik qobiliyat xususiyatlarini namoyon bo'lishining o'ziga xos psixologik jihatlari	95

Azizov A. B. Yosh yunon-rum kurashchilarning mashg'ulot jarayonida funksional imkoniyatlarini rivojlantirish va musobaqa samaradorligini oshirish	99
Begmatov R. R. Huquqbuzarliklar profilaktikasining ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari: tahlil va tavsif	104
Bo'taev T. Texnika oliygoxlari talabalarini tadbirkorlikka o'qitish va yo'naltirish asoslari	108
Bozorova D. R. Adabiyot darslarida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishda ta'lim metodlarining o'rni	112
Danieva Ya. Ch. Talaba qizlarda jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirishda xarakatli o'yinlarning ahamiyati	116
Ergashev J. B. Компьютерное обучение в системе общеобразовательной школе	119
Fayziyeva G. X. Fizika o'qituvchisining ijtimoiy-kompetensiyasini rivojlantirish ijtimoiy ta'lim jarayoni sifatida	122
Fayzullayeva M. A. Ta'lim klasteri sharoitida ta'lim jarayonini raqamli texnologiyalar asosida tashkil qilish va rivojlantirish	126
Gayupova S. X. Zamonaviy talaba shaxsini shakllantirishda individual ta'limning pedagogik imkoniyatlari	132
Gulboyev B. Zamonaviy sivilizatsiyada axborotning strategik resursga aylanishi	134
Hakimova T. N. Bo'lajak o'qituvchilarda milliy dunyoqarashni xalq pedagogikasi asosida takomillashtirish metodikasi	137
Jumaniyozova M. T. Integrativ kreativlikni rivojlantirish metodikalari	140
Kadirov R. T. Darsdan tashqari mashg'ulotlarda talaba-aktyorlarning sahna nutqiga oid bilim va ko'nikmalarni takomillashtirish usullari	146
Kurbaniyazova Z. K. Pedagogik fanlarni o'qitishda pedagogik vaziyatlardan foydalanish	151
Kurbonov I. H. Jahon ta'lim va ilmiy muassasalarda innovatsion faoliyatga shaxsning tayyorgarligini shakllantirish xususiyatlari	155
Mirsharipova S. R. Innovatsion yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentligini rivojlantirish	159
Muxtarov E. K., Musaev E. A., Ikromov A. Sh. Avtoto'lqinlarni o'rganishda kompyuter modellaridan foydalanish	161
Narzikulova D. X. Kompetensiyaviy yondashuv asosida oilada ijtimoiy munosabatlarni barqarorligini ta'minlash	166
Nurulloyev L. L. 2-4 sinf o'quvchilari bilan o'tkaziladigan jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining xususiyatlari, shakllari va usullari	170
Obidova G. K. Kompleks yondashuv orqali ingliz tilini o'rganishda ekologik madaniyatni rivojlanishini ta'minlovchi omillar	175
Oqilova K. S. O'qituvchining individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasini tuzish va takomillashtirishga motivatsion tayyorlik	178
Olloqova O'. M. Kommunikativ kompetensiya - o'quvchining muloqot madaniyatini rivojlantirish omili	182
Qarshibayeva D. X. Maktabgacha ta'lim tashkilotida metodik ishlarni tashkil etishda menejerlik sifatlarining ahamiyati	187
Qodirov G'. O'. Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda qo'llaniladigan evristik topshiriqlarning pedagogik xarakteristikasi	190
Qurbonova N. P. Bo'lajak iqtisodchilarning ingliz tili darslarida kasbiy kompetensiyalarini transformatsiya qilish	193
Ramazonova S. S., Qoryog'diev Z. O. Xalq pedagogikasi tushunchasining tahlili va uning manbaalari	197
Ravshanjonova S. J. O'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishda adabiyotning o'rni	202
Razakov F. K. Umumta'lim maktablarida, o'qitish sifatini oshirishda, o'quvchilarda ijtimoiy-psixologik xizmatni ahamiyati	205
Ro'ziyeva Z. S. Ta'lim jarayonini san'at darajasiga kutarish mevasi zavqdir	208
Safarova N. N. Zamonaviy ta'limda matematika o'qituvchisining kompetensiyasini rivojlantirishda kasbiy mahoratning ahamiyati.	212
Salimov G'. M. MTMLar jismoniy tarbiyasida harakat faolligining samaradorligini oshirish yo'llari.	223
Sayfullaeva D. I. Tibbiy oliy ta'lim muassasalari talabalarini kasb-hunar faoliyatiga tayyorlashda axborot texnologiyalaridan foydalanish metodik tizimini takomillashtirishning o'ziga xosligi	230
Tashmatova Sh. R. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativligi, uning ijodiy faoliyatida paydo bo'lishi va rivojlanishi bosqichlari	233
Тешаев III.Ж. Качество образования и векторы развития - наша основная цель	238
To'xtaeva Z. Sh., Ubaydova V. E. Yengil sanoat korxonalarida eksportbop mahsulotlar tayyorlashda naqshbandiya ta'limotini qo'llash imkoniyatlari va shart-sharoitlari	241
Toshev M. X. Maktab o'quvchilariga shaxmatni kompyuter texnologiyalari vositasida o'rgatishning didakik tamoyilari	246

**МАКТАВ О'QUVCHILARIGA SHAXMATNI KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARI
VOSITASIDA O'RGATISHNING DIDAKTIK TAMOIYLARI
ДИДАКТИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ОБУЧЕНИЯ ШКОЛЬНИКОВ ШАХМАТАМ С
ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ КОМПЬЮТЕРНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ
DIDACTIC PRINCIPLES OF TEACHING CHESS TO SCHOOL STUDENTS USING
COMPUTER TECHNOLOGIES**

*Toshev Murodjon Xalilovich
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada kompyuter texnologiyalaridan foydalanib shaxmatni o'rgatish ma'lum darajada bolalarda idrok etish muhitini, tasavvur va hissiyotlarni rivojlantirish jarayoni to'g'risida fikr yuritilgan bo'lib, shaxmatni kompyuter texnologiyalari vositasida o'rgatishning didaktik tamoyilari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: kompyuter texnologiyalari, shaxmatni o'rgatish, axborotli jamiyat, mobil aloqalar, ijodiy bilish faoliyati.

Аннотация: В данной статье процесс обучения шахматам с использованием компьютерных технологий в определенной мере развивает у детей среду восприятия, воображение и эмоции, а также анализируются дидактические принципы обучения шахматам с использованием компьютерных технологий.

Ключевые слова: компьютерные технологии, обучение шахматам, информационное общество, мобильная связь, творческая познавательная деятельность.

Abstract: In this article, the process of teaching chess using computer technologies to a certain extent develops children's perception environment, imagination and emotions, and the didactic principles of teaching chess using computer technologies are analyzed.

Key words: computer technologies, teaching chess, information society, mobile communications, creative cognitive activity.

Zamonaviy jamiyat internet va axborotni qayta ishlash uchun kompyuter texnologiyalarining keng tarqalishi bilan ajralib turadi. Kompyuter texnologiyalari rivojlangan axborotli jamiyatda inson axborot faoliyatining yetakchi vositasi hisoblanadi, bu esa shaxmat o'rgatishni samaradorligini oshirishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanishni ta'qozo etadi. Shu bilan birga kompyuter texnologiyalaridan foydalanish bolalarni shaxmatga o'rgatish jarayonida zamonaviy yondashuvning dolzarb muammosidir. Hozirgi kunda aksariyat bolalar kompyuter, mobil aloqalardan foydalanadi va internetga doimiy ravishda chiqishadi [1]. Shuning uchun bugungi kunda virtual bilim olishga bo'lgan qiziqish o'quvchilarning o'rganishga bo'lgan kuchli motivatsiyalardan biridir.

Kompyuter texnologiyalaridan foydalanib shaxmatni o'rgatish ma'lum darajada bolalarda idrok etish muhitini, tasavvur va hissiyotlarni rivojlantirish jarayonini o'zgartiradi. Bugungi kunda har bir shaxmat o'qituvchisi kompyuter texnologiyalaridan foydalanib, mashg'ulotni tayyorlashi va o'tkazishi juda muhimdir. Bunday mashg'ulot mazmunli, qiziqarli, ko'rgazmali va interfaol bo'lib, o'qituvchi va o'quvchining vaqtini tejaydi. Shu bilan birga bolaga muayyan suratda ishlay olish imkonini beradi. O'qituvchiga esa guruh bilan va yakka tartibda ishlashi, o'qitish natijalarini tez kuzatishi va baholashi imkoniyatini beradi.

Kompyuter texnologiyalari asosida o'qitishning vazifalariga – bolalarni shaxmatga qiziqitirish, ularga zarur bo'lgan bilimlarni egallashlari uchun e'tiborlarini jalb etish, samarali usullarni izlab topish, o'quvchilarning ijodiy bilish faoliyatini rivojlantirish kiradi [2].

Bolalarni kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda shaxmat o'ynashga o'rgatish intellektual qobiliyatni oshirishning samarali vositasi - diqqat, qo'nikma, mantiqiy fikrlash, keng tasavvurga ega bo'lish va shaxsning barkamol rivojlanishiga yordam beradi.

Kompyuter texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklaridan yana biri bu - ko'rgazmalilikni oshirishdir. O'quv materialini og'zaki taqdim etish va didaktik vazifalarni tahlil qilish ko'pchilik bolalarda qiziqish uyg'otmaydi. Ko'rgazmalilikning asosiy shakllaridan biri sifatida dasturiy vositalar yordamida shaxmat o'yinida paydo bo'lishi mumkin bo'lgan vaziyatlarni yaratish. Shu bilan birga kompyuterda ishlashning optimal davomiyligi 10-20 daqiqadan oshmasligi kerakligini ta'kidlash kerak.

Axborot va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish zamonaviy shaxmat nazariyasini ancha rivojlantirdi. Agar 15-20 yil oldin, shaxmat o'rgatish jarayonida zarur ma'lumotlarni izlab topish va



tahlil qilish uchun bir necha kunlar sarflangan bo'lsa, endi barchasiga bir necha daqiqalarda erishish mumkin. Quyidagi jadvalda shaxmatni axborot va kompyuter texnologiyalari yordamida o'qitishning ijobiy va muammoli holatlari keltirilgan.

1 – jadval

Shaxmatni axborot va kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishning ijobiy va muammoli holatlari

Ijobiy holatlar	Muammoli holatlar
Kompyuterdagi shaxmat dasturlari bolalarga kerakli o'yin amaliyotiga ega bo'lishlariga yordam beradi.	Kompyuter texnologiyalari bilan ishlash ko'nikmalarini yetarli emasligi.
Shaxmatni turli raqiblar bilan masofaviy onlayn tarzda o'ynash imkoniyati. Mos raqibni tanlash, vaqtni va o'yin qoidalarini nazorat qilish, ma'lumot yetkazish kabi amallarni dasturiy ta'minotning o'zi amalga oshiradi.	Dasturlarda eng maqbul o'yin variantlarini tanlash imkoniyati mavjudligi, bolalarda o'yin jarayonlarini chuqur tahlil qilmaslikka undaydi. Bu esa o'z o'rnida bolalarda chukur tahlil qilish ko'nikmalarni rivojlantirmaydi.
Shaxmat dasturi har qanday shaxmat pozitsiyasini tahlil qilishi, inson aqli bajara olmaydigan tezlikda millionlab kombinatsiyalarni ko'rib chiqishi, mavjud bo'lgan vaziyatda ulardan eng maqbulini yechim sifatida taqdim etishi mumkin	Kompyuter dasturlari bolalarda ma'lumotlarni izlash, tanlash, tahlil qilish ko'nikmalariga o'rgatmaydi. Shaxmat darslarining maqsadi esa bolalarda taxlil qilish malakalarini oshirishga qaratilgan.
Shaxmat dasturlaridan foydalangan holda, shaxmat mashg'ulotlariga, musobaqalariga tayyorlanishning qulayligi.	Kompyuter dasturlari jonli muloqotlarning o'rnini bosa olmaydi.
O'qituvchiga gurux bilan va yakka tartibda ishlashi, o'qitish natijalarini tez kuzatishi va baholashi imkoniyatini beradi.	Bolalar o'rtasida muloqotning, bir-biriga bo'lgan mehr-oqibat va munosabatlarning kamayishi.

Shaxmat dasturlarini maqsadi, funktsiyalari va imkoniyatlariga ko'ra tahlil qilib, ularni to'rt guruhga bo'ldik:

- Shaxmat birinchi marotaba o'rganuvchilar uchun;
- boshlang'ich va davom ettiruvchilar uchun;
- shaxmat o'ynash strategiyasi va taktikasini takomillashtirish;
- internetdagi shaxmat platformalar.

Hisoblash texnikasining rivojlanishi va shaxmatchilarni tayyorlashda shaxsiy komp'yuterlardan keng foydalanish natijasida shaxmat o'yinini o'rgatish uchun an'anaviy darsliklar bilan bir qatorda elektron qo'llanmalar paydo bo'ldi. Keyinchalik murakkablik darajasi turlicha bo'lgan va turli ma'lumotnomalarni ham o'z ichiga olgan elektron darsliklar ishlab chiqildi.

A Gancharov tomonidan ishlab chiqilgan «Ertaklardagi shaxmat» dasturi bolani shaxmat nazariyasi bilan tanishtiradi, o'yinning amaliy ko'nikmalarini egallashga yordam beradi[4]. Katta xajmdagi materiallar qulay, qiziqarli va oson esda qoladigan shaklda berilgan. Ertak qahramonlarining sarguzashtlarini tomosha qilib, bola o'zi sezmaganda shaxmat o'ynashni o'rganadi va o'yin qoidalarini o'zlashtiradi.

Dastur animatsion ko'rinishlar, ovoz jo'rliqi va musiqasi bilan ajralib turadi. Rang-barangli interfeys bolalarni o'ziga tortadi va estetik zavk bag'ishlaydi. Kiziqarli mashqlar shaxmat qoidalarini va o'yin ko'nikmalarini mustahkamlashga, xamda mantiqiy fikrlash va tasavvurlarni rivojlantirishga qaratilgan.

Dastur quyidagi komponentlarni o'z ichiga oladi:

- tanish va sevimli mul'tiplikatsion qahramonlar;
- o'yinning asosiy shaxmat qoidalari va texnikasining taqdim etilishi;
- kiziqarli mashqlar, shaxmat qoidalarini va o'yin ko'nikmalarini mustahkamlash;
- bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish, mantiqiy fikrlash va tasavvur.

Boshlanuvchilar uchun «Shaxmat maktabi» mul'timedial dastur Yu.S. Razuvaev tomonidan tayyorlangan materiallar asosida ishlab chiqilgan [2]. Dastur simulyator tamoyili asosida ishlab chiqilgan bo'lib u ketma-ket va tanlab o'rganish mumkin bo'lgan uchta mustaqil bo'limni o'z ichiga oladi. «Shaxmat o'yini qoidalari» bo'limida keng nazariy materiallar mavjud bo'lib, amaliy vazifalar bilan to'ldirilgan. «Aqliy qobiliyatlarni rivojlantirish» bo'limida tasavvur, mantiqiy fikrlash xamda e'tiborni fikrni jamlash rivojlanadi. «Dastur bilan o'ynash» bo'limi olingan ko'nikma va malakalarni mustahkamlash va kompyuter bilan o'ynash malakalarini oshirish uchun mo'ljallangan.

Dastur quyidagi xususiyatlarni o'z ichiga oladi:

- shaxmat o'yini qoidalarini o'rganish,
- aqliy qobiliyatlarni rivojlantirish,
- kompyuter bilan raqib sifatida o'ynash,
- amaliy misollar (700 dan ortiq o'quv misollar),
- har bir talaba uchun vizual va batafsil statistika
- o'z-o'zini o'rganish uchun ham undan foydalanish imkoniyati va guruh darslari uchun

Shaxmat taktikasi dasturi S. D. Ivashchenko tomonidan darslik asosida tayyorlandi [4].

Dastur o'yin qoidalari va texnikasi bilan tanish bo'lgan o'quvchilar uchun mo'ljallangan bo'lib.

Dastur nazariy bo'limga ega emas.

Dasturning maqsadi o'quvchilarning pozitsion ko'nikma va kommunikativ tafakkurini rivojlantirishga yordam berishdan iborat. Pozitsion ko'nikma-bu yashirin kombinatsiyalarni bir holatda aniqlash, taktik qobiliyatlarni hisobga olish va variantlarni hisoblash qobiliyatidir. Kombinatsion fikrlash-bu mavjud vaziyatning xususiyatlarini to'g'ri tushunish, ulardan eng muhimlarini aniqlash va ulardan foydalana olish qobiliyatidir.

Dastur quyidagi xususiyatlarni o'z ichiga oladi:

- mashg'ulotning besh bosqichi;
- 1300 dan ortiq o'quv vazifalari;
- ichki o'yin dasturi;
- har bir foydalanuvchi uchun vizual va batafsil statistika;
- undan yakka tartibda o'qitish uchun ham, kompyuter sinfida yoki o'quvchilar guruhida o'qitish uchun ham foydalanish imkoniyati.

IV-II razryadlar uchun shaxmat maktabi. Dastur N. I. Juravlyov tomonidan materiallar asosida ishlab chiqilgan. Bu dasturning mustahkam tuzilishi va mashg'ulotlarga bo'linganligi bilan to'liq elektron o'quv qo'llanma hisoblanadi. Uning xususiyatlari (ko'p darajali vazifalar, ko'p sonli animatsiya qo'shimchalari) ancha murakkab va ko'p hajmli materialni yaxshiroq o'zlashtirish imkonini beradi [5].

Dastur o'zaro chambarchas bog'langan ikki bo'limdan iborat: nazariy «asosiy shaxmat qonunlari» va amaliy «o'yin».

Dastur quyidagi xususiyatlarga ega:

- shaxmat nazariyasi bo'yicha keng qamrovli materiallar va dasturdan foydalanish bo'yicha batafsil ko'rsatmalar qulay shaklda taqdim etiladi;
- ichki o'yin muntazam mavjud;
- nazariyani o'rganish uchun 450 ta misol;
- amaliyot uchun 750 misollar;
- guruhli o'qitish uchun undan foydalanish imkoniyati;
- yordam va maslahatlarning qulay tizimi.

Shaxmat dasturlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, ularning aksariyati malakali shaxmatchilarni tayyorlashga qaratilgan bo'lib, faqat ayrim mualliflar, asosan, psixologlar va o'qituvchilar shaxmat o'yinini aqliy qobiliyatlarni rivojlantirish bilan bog'laydilar.

Internet tarmog'ini imkoniyatlari kengayishi bilan turli shaxmat elektron platformalar yaratildi. Ular nafaqat o'yin dasturini balki onlayn o'ynash, o'yinlarni taxlil qilish, statistik ma'lumotlarni yig'ish kabi imkoniyatlarni o'ziga qamrab olgan. Hozirgi kunda shaxmat o'yinini o'rgatish uchun kompyuter dasturlari, o'zida nafaqat dasturlarni, balki ma'lumotlar bazalari (o'ynalgan partiyalar) va boshqa materiallarni qamrab olgan. Bular «Arena», «XBoard/WinBoard», «BabasChess», «Komodo», «Chessbase», «Stockfish», «Lucas Chess», «Scid vs PC» va boshk. [6].

Qisqacha ularning asosiy jihatlarini keltirib o'tamiz:

«Arena» mashhur va katta imkoniyatlarga ega shaxmat dasturi. Shaxmat o'yinlarini tahlil qilishda dasturdagi ma'lumotlar bazalaridan foydalanish mumkin. Dasturning imkoniyatlariga qo'yidagilar kiradi:


- har qanday pozitsiyani qo'lda sozlash;
- har qanday pozitsiyadan kompyuter tahlilini kiritish;
- eng yirik shaxmat Internet platformali serverlariga ulanish.

«XBoard/WinBoard» turli shaxmat o'yinlarini tahlil qiluvchi grafik interfeysga ega eng mashhur shaxmat dasturlaridan biridir. Bu dastur shaxmat serverlaridan biriga Internet aloqasi yordamida nafaqat kompyuter bilan, balki bir -biri bilan shaxmat o'ynashga imkon beradi. 1-rasmda «XBoard/WinBoard» dasturiy ta'minotning umumiy ko'rinishi keltirilgan.



1-rasm. XBoard/WinBoard dasturiy ta'minotning oynasi

"BabasChess" - Internet orqali shaxmat o'yinlarini o'tkazish uchun dastur platforma. Kuchli dasturiy platformalardan biri hisoblanib o'yinlarni tahlil va onlayn raqib tanlash va o'ynash, statistik ma'lumotlarni saklab qolish va boshqa imkoniyatlarga ega.



2-rasm. BabasChess dasturiy platformaning asosiy oynasi

Yuqorida keltirilgan va boshqa boshlang'ich shaxmatni o'rgatish dasturlarni tahlil qilish natijasida qo'yidagi xulosalarga kelindi:

- shaxmat sportning bir turi sifatida shaxmat-umumiy ta'lim maktablarida aqliy faoliyatni intellektual rivojlantirish vositasi sifatida xizmat qiladi;
- kompyuter texnologiyalarni shaxmatni o'rgatish jarayoniga keng ko'llash kerak;
- kompyuter shaxmat dasturlariga bolaning aqliy qobiliyatlarini tarbiyalash muammosini bevosita hal qilishga yordam beruvchi maxsus usullar kiritilishi zarur;
- shaxmatni o'qitish usuli davlat ta'lim standartida shakllantirilgan talablarni hisobga olishi kerak;
- dasturning nazariy va amaliy qismi o'quvchi shaxsini rivojlantirish, axloqiy va estetik fazilatlarini tarbiyalash, bilim, ko'nikma va malakalar tizimini rivojlantirishga qaratilishi kerak;
- dasturlarni tayerlashda ergonomik jihatlariga e'tibor qilitish kerak, jumladan bolalarning jismoniy va ruhiy salomatligini muhofaza qilish va mustahkamlash;
- dasturiy ta'minotda bolaning individualligini saqlash va qo'llab-quvvatlash vositalari alohida o'rin egallashi kerak.

O'rganilgan axborot manbalarida shaxmat o'yinini o'qitish nazariyasi va amaliyotiga oid,

shuningdek, ilmiy adabiyotlar, pedagogika va psixologiya fani bolalarda har tomonlama rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularning ilmiy faoliyatini yaxshilashga ta'sir qiladigan, bolaning muayyan aqliy qobiliyatlarini tarbiyalash masalalarini to'liq ochib bermaydi. Shuning uchun ham boshlang'ich sinf o'quvchilaridagi bu individual o'ziga xos aqliy qobiliyatlarni aniqlash lozim. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining aniqlangan o'ziga xos aqliy qobiliyatlari ularning keyingi shaxmat sportidagi tarbiyasini ham belgilaydi.

Odamlarning, ayniqsa, yosh o'quvchilarning intellektual qobiliyatlari ko'p komponentli bo'lib, shaxmat o'yinini o'rganish va takomillashtirish jarayonida egallangan, bilim va ko'nikmalardan ham yuqoridir.

Birinch navbatda ularga quyidagilar kiradi:

- diqqat;
- tezkor xotira;
- kombinatsion, mantiqiy va ijodiy fikrlash;
- keng tasavvur qilmoq va tasarruf etmoq

Shuning uchun ham ushbu tadqiqotda boshlang'ich sinf o'quvchilarida inson ruhiyatining o'ziga xos tarbiyaviy va sport (shaxmat) bilan uyg'unlashgan masalalarini tizimli hal etish imkonini beruvchi muayyan o'ziga xos xususiyatlari tanlab olindi.

Umumiy ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida axborotlarni qayta ishlashning kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda shaxmat o'yinini o'qitish metodikasi o'rganishga tizimli yondashuv asosida ishlab chiqilishi, uning ajralmas qismi fanlararo bog'lanishlarni amalga oshirishdan iborat bo'lishi lozim.

Shuning uchun boshlang'ich sinf o'quv dasturining ikki mavzusi: axborot texnologiyalari va shaxmat o'yini haqida izlanishlar o'borilgan.

Umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida axborotni qayta ishlashning kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda shaxmatni o'qitish usuli davlat ta'lim standartida shakllantirilgan talablarni hisobga olishi va quyidagi asosiy maqsadlarni amalga oshirishga mo'ljallangan: o'quvchi shaxsini rivojlantirish, axloqiy va estetik fazilatlarini tarbiyalash, bilim, ko'nikma va malakalar tizimini rivojlantirish, bolalarning jismoniy va ruhiy salomatligini muhofaza qilish va mustahkamlash, bolaning individualligini saqlash va qo'llab-quvvatlash.

Boshlang'ich bosqichda yosh maktab o'quvchilarini kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda shaxmat o'ynashga o'rgatishda asosiy o'rinni o'yinning o'zi egallaydi. Yosh maktab o'quvchilarini kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda shaxmat o'ynashga o'rgatish metodikasini ishlab chiqishda o'yin faoliyatining deyarli boshidan boshlab, qarama-qarshilik, ya'ni raqobat elementlariga ega bo'lgan xususiyatlari hisobga olingan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

Бегимкулов У.Ш. Педагогик таълим жараёнларини ахборотлаштиришни ташкил этиш ва бошқариш назариёси ва амалиёти. //Пед. фан. док. дисс. – Т.: 2007. – 305 б.

Гершунский Б.С. Шахматы - школе будущего // Образовательно-педагогическая прогностика: Теория, методология, практика. - М.: Флинта: Наука, 2003. - С. 298 – 311.

Ладохина И.Ю. Дифференцированный и индивидуальный подходы к обучению в современной начальной школе //Автореферат дисс. ... канд. пед. наук.- Рязань, 2012.-22 с.

Мамуров Б. и соавт. Акмеологический подход к формированию здорового образа жизни у студентов вузов // III Международный научный конгресс Общества окружающего интеллекта 2020 (ISC-SAI 2020). – Атлантик Пресс, 2020. – С. 347-353.

Самнева Ш. Х. ВАЖНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ИННОВАЦИОННОЙ ПОДГОТОВКИ МОЛОДЕЖИ К ДУХОВНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ //Качество жизни населения промышленных территорий в стратегии «Общество 5.0». – 2022. – С. 153-156.

Абдуллаев К. Ф. Воспитание двигательных качеств подростков в семье //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 9-2 (87). – С. 58-60.

Тошев М. Х. Мактаб ўқувчиларини шахматга тайёрлашнинг шакллари: 10.53885/edinres. 2021.44. 19.065 MX Тошев БухДУ таянч докторанти //Научно-практическая конференция. – 2021.

Тошев М., Рамазанова Ф. Патриотическое воспитание-важная составляющая духовно-нравственного воспитания детей и молодежи //Наука. Мысль: электронный периодический журнал. – 2014. – №. 6. – С. 22-27.

Halilovich T. M. An International Multidisciplinary Research Journal.

Halilovich T. M. Areas of work of a sports psychologist //Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). – 2020. – Т. 9. – №. 11. – С. 188-193.

Halilovich T. M. The role of chess in the development of intellectual abilities of secondary school students (based on computer technology) //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 11. – №. 4. – С. 1254-1258.

Шукуров Р., Тошев М. СПОРТ КАК СОРЕВНОВАТЕЛЬНАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ //Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов. – 2015. – №. 5. – С. 139-140.